

MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK O'ZBEK XALQINING YUKSAK QADIRIYATIDIR

Ahrorbek Sharobiddinov Qosimjon o'g'li

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti

Buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishi

2- bosqich 207- guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7223306>

Annotatsiya: Bu maqolada O'zbekiston Respublikasi hukumati va o'zbek xalqining boshqa millat va elat vakillariga bo'lgan hurmati va ular bilan tinch-totuv yashashi sabablari keltirgan. Bizning xalqimiz boshqa din vakillarini kamsitmasligi, aksincha ularni hurmat qilishi keng yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: O'zbek, millat, millatlararo totuvlik, irq, irqiy kamsitish, din, diniy bag'rikenglik, til, milliy-madaniy markaz, konfessiya, e'tiqod, huquq.

“O'zbekiston Respublikasi barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar”(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasidan).

Ma'lumki, O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston hududi qadim asrlardan turli madaniyat, til, urf-odat, turmush tarziga ega bo'lgan, xilma-xil dinlarga e'tiqod qiluvchi, bir-biriga o'xshash bo'lmagan bir necha xalqlar yashagan o'lkadir. O'zbekistonning geografik nuqtai nazardan muhim savdo yo'llari chorrahasida joylashgani, ko'plab davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar qilgani turli xalqlarning diniy va ma'naviy hayotiga, shuningdek, Movarounnahrda urf-odatlar ham o'zga yurtlar madaniyati rivojiga salmoqli ta'sir ko'rsatgan. Bu esa o'ziga xos millatlararo hamjihatlik va diniy bag'rikenglikni shakllantirishdagi asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qilgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida ishlab chiqilgan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat etib belgilangan. Bugun shu asosda aholi, ayniqsa, yoshlar ongida insonparvarlik qadriyatlarini, turli millatlar vakillari o'rtasida o'zaro hamjihatlikni, yaqin qo'shnilarimiz bilan do'stona aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan ezgu ishlar olib borilmoqda.

Yer yuzidagi 1600 dan ortiq millatdan bor-yo'g'i 200 ga yaqini o'z davlatchiligiga ega, xolos. Bunday sharoitda butun dunyoda millatlararo totuvlikni ta'minlash uchun ularning manfaatlari, ruhiyati, intilishlarini muntazam o'rganib borish, siyosiy-ijtimoiy hayotda buni doimo e'tiborga olish zarur.

“O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”(O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasidan)

Bugun yurtimizda 130 dan ortiq millat va elatlar vakillari bir oila farzandlaridek, teng huquqlilik hamda o‘zaro hamjihatlik sharoitida yashab, Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlashga munosib hissa qo‘shib kelmoqdalar. Ularning qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, ta‘lim olishlari, o‘z qiziqishlari bo‘yicha kasb-hunar egallashlari, madaniyatlari, urf-odatlari, an‘analarini saqlash va rivojlantirishlari uchun zarur imkoniyatlar yaratib berilgan. Barcha millat va elat vakillari davlat boshqaruvi, iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy jarayonlarda keng va erkin ishtirok etib kelishmoqda. Hozirgi paytda 138 ta milliy-madaniy markaz, shuningdek, 34 ta do‘stlik jamiyati faoliyati O‘zbekitondagi barcha millat hamda elatlarning tarixi, madaniyati, ma‘naviy qadriyatlarini, an‘ana va urf-odatlarini asrash hamda har tomonlama rivojlantirishda munosib xizmat qilib kelmoqda. Bugungi kunda respublikamizdagi etnik guruhlarning samarali faoliyatiga keng imkoniyatlar yaratish uchun mamlakatimiz ta‘lim muassasalarida o‘qish 7 tilda olib borilmoqda. Teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar esa 12 tilda efirga uzatilayabdi, hamda gazeta va jurnallar 10 dan ortiq tillarda chop qilinmoqda.

O‘zbekistonda turli millat va dinlarga mansub kishilarning qadriyatlarini asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o‘z e‘tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o‘rtasida qadimiy mushtarak an‘analarni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratib kelinmoqda. Mazkur sohada olib borilgan islohotlar doirasida erishilgan muhim natijalardan biri sifatida 2018-yilda AQSH Davlat departamenti O‘zbekistonni diniy erkinlik borasida “alohida tashvish uyg‘otuvchi mamlakatlar” ro‘yxatidan chiqarganini ko‘rsatish mumkin. BMT Inson huquqlari bo‘yicha Bosh komissari Zayd al-Husaynning 2017-yil 11-may kuni Samarqand shahrida faoliyat olib borayotgan diniy konfessiyalar hamda milliy-madaniy markazlar rahbarlari bilan bo‘lgan uchrashuv davomida “Bugungi dinlararo va millatlararo notinchlik bo‘lib turgan tahlikali kunlarda O‘zbekistondagi mavjud dinlararo va millatlararo totuvlikni turli davlatlar tomonidan o‘rnak bo‘lishga loyiq” – degan so‘zlari ham yurtimizda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik sohasida olib borilayotgan siyosatning e‘tirofi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Qadimdan diyorumizda buddaviylik, zardushtiylik, nasroniylik, yahudiylik, islom dinlari yonma-yon yashab kelgan, madaniyat markazlari hisoblangan

shaharlarimizda masjid, cherkov, sinagogalar faoliyat ko'rsatgan. Ular turli millat, elat va dinga mansub xalqlar, qavmlar o'z diniy amallarini emin-erkin ado etgan. Vatanimiz tarixining eng murakkab, ziddiyatli, og'ir davrlarida ham yurtimizdagi mavjud din vakillari orasida diniy asosda mojarolar bo'lgan emas. Bu yurtimiz xalqlarining diniy bag'rikenglik borasida katta tajribaga ega bo'lganidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev xalqimizning dunyoqarashida tobora chuqur va mustahkam o'rin egallayotgan bag'rikenglik tamoyili to'g'risida shunday deydi: "Bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo'stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo'lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi".

Hech kimga sir emaski, hozirgi kunda O'zbekistonda barcha diniy tashkilotlarga qonun doirasida teng sharoit yaratib berilgan. Ularning qonunga mos istaklari ro'yobga chiqarilmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda 16 ta diniy konfessiya, jumladan islom, xristian, yahudiylik va boshqa dinlar vakillari ahil-inoq, tinch-totuv yashab, o'zlarining diniy e'tiqod amallarini erkin ado etib kelmoqdalar. Mamlakatimizda millatlararo va dinlararo munosabatlar sohasida yuritilayotgan oqilona siyosat asosida har bir shaxsning vijdon va e'tiqod erkinligi diniy qarashlaridan qat'i nazar teng huquqliligi ta'minlangani, shuningdek, respublikamizdagi diniy tashkilotlar jamiyatda tinchlik, osoyishtalik, millatlar va dinlararo totuvlikni mustahkamlash borasida sermahsul faoliyat ko'rsatib kelayotganliklari hech kimga sir emas.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, yuqorida ta'kidlanganlarning barchasi ya'ni O'zbekiston Respublikasida istiqomat qilayotgan turli millat va din vakillarining o'zbek xalqi bilan teng huquqlilik hamda o'zaro hurmat asosida ahil-inoq yashashida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov va amaldagi muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning oqilona hamda chuqur o'ylangan siyosati va islohotlarining amaldagi natijasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: "O'zbekiston", 2020 .-4-8 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning rasmiy veb-sayti www.religions.uz
3. Omonulla Fayziyev. Millatlararo totuvlik tinchlik va osoyishtalikning mustahkam asosidir maqolasi . Xalq so'zi gazetasi
4. www.naqshband.uz